

O'ZBEKISTONNING TARIXIY-GEOGRAFIK HUDUDLARIDA ILK TEMIR DAVRI MUDOFAA INSHOOTLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning madaniy-xo'jalik hududlarida ilk temir davri mudofaa inshootlarida arxeologik izlanishlar natijalariga doir mulohazalar tahlil qilingan

Kalit so'zlar. Ko'zaliqir, Talibarzu, Chust, Tillatepa, Chirikrabod, Dalvarzintepa, Yerqo'rg'on, Kuchuktepa, Mirshodi, Qiziltepa

Аннотация: Научная статья анализирует результаты археологических исследований оборонительных сооружений раннего железного века на культурно-хозяйственных территориях Узбекистана

Ключевые слова: Кўзалиқир, Талибарзу, Чуст, Тиллатепа, Чирикрабод, Далварзинтепа, Ерқўрғон, Кучуктепа, Мишоди, Қизилтепа

Annotation: The article analyzes the results of archaeological research on early Iron Age defensive structures in the cultural and economic regions of Uzbekistan

Key words: Kozaliqir, Talibarzu, Chust, Tillatepa, Chirikrabod, Dalverzintepa, Yerqurgon, Kuchuktepa, Mirshodi, Qiziltepa

Kirish. XX asr 30-yillari o'rtalaridan boshlab vatanimiz viloyatlarida turli atamaga ega bo'lgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining ajdodlarimizni tarixiy davr, turli bosqichlarida hayot va ijod namunalari bo'lgan turar-joylar mudofaa inshootlarida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin.

1. XX asr 30 yillar oxiri-40 yillar o'rtalari
2. XX asr 40 yillari o'rtalari-90 yillar.
3. Mustaqillik yillari arxeologik izlanishlar

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi ilk temir davriga oid bo'lgan axoli turar-joylarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida 1939-yilda Sariqamishbo'yi xududi Amudaryo Dovdon irmog'i o'rta qismi shimolida joylashgan balandlik qiriga qurilgan Ko'zaliqir yodgorligini ochib berildi. 1939-yilda G.V.Grigorev Samarqand yaqinida joylashgan Tali-Barzu yodgorligida arxeologik izlanishlarni olib borishi munosabati bilan, yodgorlik tomonlarini o'rab olgan mudofaa devori qurilishi yoritildi.

1948-1949 va 1957-1958 yillarda Xorazm ekspeditsiyasi Chirikrabotda va Babishmullada arxeologik izlanishlarni olib bordi. 1974-yilda Yu.A.Zadneprovskiy, 1982-1983 yillarda B.X.Matboboev Chust manzilgohida arxeologik tadqiqotlarni davom ettirgan. Arxeologik izlanishlar natijasida, 4 gektar ekanligi, shimoli-g'arbiy tomoni uzunligi 286 m mudofaa devor qoldiqlari aniqlangan.

1970-yildan boshlab, A.S.Sagdullaev, Z.Xakimovlar Sho'rchi tumanida Mirshodi qishlog'i xududida Qiziltepada qazishma ishlarini olib borishi natijasida belgilangan maqsadlar natijaga erishgan. V.M.Masson Murg'ob daryosi yuqori qismida Yazdyana yodgorligida 8 metr xom g'ishtli poydevor ustiga saroy-inshooti qurilgan, u madaniy-xo'jalik markazi bosh shaxri xukmdori yashagan degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotning metodik uslublari:

- Ilmiylik;
- xronologik izchillik;
- tarixiy tahlil;
- qiyoslash, asoslash;

- etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geologiya va geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanish

Muhokama. Birinchi tarixiy davrda Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi ilk temir davriga oid bo'lgan axoli turar-joylarida arxeologik tekshirishlari ishlari boshlab bergan. 1939-yilda Sariqamishbo'yi xududi Amudaryo Dovdon irmog'i o'rta qismi shimolida joylashgan balandlik qiriga qurilgan Ko'zaliqir yodgorligida qisman qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan uning topografik joylashishi uchburchak shaklda, geografik o'rin xajmi 1000x400 m. Yodgorlik mudofaa devorida olib borilgan qazishma ishlari natijasida, u uch qatorli yo'lakli devor o'rab olinganligi, yo'laklarda axoli yashaganligi, axolisi asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lganligi sabab, ularni mo'ljallab qurilganligi, uning faoliyatini mil.avv.VI-IV asrga tegishli manbalar olinganligini qayd qilgan[1].

S.P.Tolstov ilk asarida o'rganilgan mudofaa devori elementlari-tug'riburchakli burj, devordan oldinga o'sib chiqishi-3,5 m. tomonlarida 5 tadan-15 ta devorda 20 ta nayza o'qli shinaklar joylashishi qadimiy xolati tiklangan[2].

Shu ma'noda Xorazm voxasi janubiy chegarasida Ko'zaliqir mudofaa tizimi o'rganilishi natijasida temir davri so'nggi bosqichi mudofaa inshootlari manbashunosligi fani vujudga kelishiga zamin bo'ldi.

1939-yilda G.V.Grigorev Samarqand yaqinida joylashgan Tali-Barzu yodgorligida arxeologik izlanishlarni olib borishi munosabati bilan, uning topografik joylashishi trapetsiya shaklida, umumiy geografik o'rni-5 gektar, markazida ark joylashgan, balandligi-8 m. Yodgorlik ichki qismida olib borilgan qazishma ishlari natijalari mil.avv. VI-V asrlarga oid bo'lgan. Tadqiqotning yodgorlik tomonlarini o'rab olgan mudofaa devori qurilishi mil.avv.V-IV asrlarga, ya'ni temir davri oxirgi bosqichiga qurilgan. Devorda tug'riburchakli burj, ularda nayoza o'qli shinaklar joylashgan[3]. Zarafshon vodiysi temir davriga oid turar-joylar mudofaa elementlari to'g'risida ilk manbalar olingan, bu esa Xorazm vohasi jamiyatida va o'rta Zarafshon xududida temir davri manbashunosligi geografiyasi kengayishiga zamin bo'lgan.

1948-1949 va 1957-1958 yillarda Xorazm ekspeditsiyasi Chirikrabotda arxeologik izlanishlarni olib-borishi natijasida quyidagicha aniqlik kiritilgan. Yodgorlik 15 m balandlikda shimoldan janubiy tomon cho'zilib tuxumsimon shaklga ega uzunligi 850 m, kengligi 600 m dan iborat bo'lgan. Yodgorlik markazida tug'riburchakli istehkomli inshoot joylashgan, hajmi 20 ga. G'arbiy devori janubi va g'arbiy devor o'rtasini birlashtirgan devor qurilgan. Tashqi va ichki devorda 25 ta tug'riburchak burjlar qoldiqlari saqlanib qolgan. Yodgorlikda madaniy xayot mil.avv. VI asr oxiri -V asr-iqtisodiy tanazzul mil.avv. II asrga oid bo'lgan. Tadqiqotchi fikriga ko'ra yodgorlik faoliyati XII asrdan qayta boshlangan[4]. Shu bilan birga, ikkinchi yodgorlik Babishmullada arxeologik izlanishlar davom etganligi bois, quyidagi natijalarga erishilgan. Yodgorlik Jonadaryo irmog'idan ajralib chiqqan ikki shaxobcha o'rtasida joylashgan, topografik joylashishi tug'riburchak, umummaydoni-3 gektar.

1974-yilda Yu.A.Zadneprovskiy, 1982-1983 yillarda B.X.Matboboev Chust manzilgohida arxeologik tadqiqotlarni davom ettirgan. Arxeologik izlanishlar natijasida, 4 gektar ekanligi, shimoli-g'arbiy tomoni uzunligi 286 m mudofaa devor qoldiqlari aniqlangan. Yodgorlikning ichki qismida 1,5 gektar maydoni aloxida mudofaa devor bilan o'rab olingan, aftidan bu inshoot ark bo'lganligi izohlangan. Devor qalinligi 2,7-3 m. Devor ba'zi joylarida paxsa, ba'zida xom g'isht aralashgan[5]. 1952-yilda Yu.A.Zadneprovskiy Chust madaniyatiga mansub Dalvarzintepa yodgorligi ro'yxatga olingan, 16 yil davomida qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan yangi-yangi manbalarni olishga muyassar bo'lgan. Yodgorlik Qoradaryo irmog'i axolini suv bilan ta'minlagan.

Yodgorlikning topografik joylashishi hajmi 25 gektar bo'lgan. Uning ichki tuzilish xususiyatini 3 qism ajralgan, ya'ni 18 gektarda axoli kundalik faoliyatini olib borgan, 5 gektar chorva mollari saqlashga mo'ljallangan, xamda 2 gektari aloxida devor bilan o'rab olingan, u ark vazifasini bajargan. Mudofaa devor asosi paxsa, unga guvalak, keyin esa g'isht bo'lgan. Mudofaa devor ta'mirlashida gevalaklar xizmat qilgan mudofaa devor qalinligi 4-6 m, balandligi 2,5 m dan iborat. Dalvarzinlik binokorlari tayyorlagan xom g'ishtlarda 20 ta xilma-xil belgilar tasvirlangan.

Sopollitepa va Jarqo'ton qurilishida ishlatilgan xom g'ishtlarda tamg'alar ishlatilmagan. Tarixiy davr jixatidan yodgorlik xunarmandlarning g'isht tayyorlashda maxsus belgilarni tasvirlash bilimi ilk bor mil.avv. XII-VIII asrlarga oid bo'lganligi qayd qilindi.

Tadqiqotchilar Chust madaniyatiga oid yodgorliklariga Dalvarzintepa, Chust, Ashkoltepa turar-joylarini tarixiy davrlarini quyidagicha izohlaganlar, ya'ni, ikki bosqichga ajratilgan:

1-bosqich mil.avv. XII-IX asr

2-bosqich mil.avv. VIII-VII asrlar. Mazkur yodgorliklari miqdoriy jixatlariga e'tibor berilib, ular uch guruhga bo'lingan.

1-guruhga geografik o'rni 13-25 gektar

2-bosqich o'rtamiyonaga ega bo'lgan turar-joylar (1-5 ga)

3 bosqichga esa mitti xajmli turar-joylar (0,1-0,9 ga) [6]

Janubiy Zarafshon vodiysida, Qashqadaryo viloyati xududida eng qadimiy madaniy meros ob'ektlaridan biri Yerqo'rg'on yodgorligi hisoblangan. Yodgorlik viloyat poytaxti Qarshi shaxri 10 km uzoqlikda shimolida tekislikka joylashgan. Qashqadaryo irmog'idan chiqarilgan tarmoq suv bilan ta'minlangan. Yodgorlikni topografik joylashishi uchburchak shaklda aloxida mudofaa devor o'rab olgan. Tashqi devor o'rab olingan maydon 150 gektar, ichki devor o'rab olgan xudud esa-40 gektardan iborat. Ichki devor shimolida ark joylashgan, asosi 90x90 m, yuqori qismi 70x70 m, tashqi devor yaqinida xandak saqlanib qolgan, kengligi-20 m.

Arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar Yerqo'rg'onning ilk qurilish davri mil.avv. V asrga oid bo'lgan[7].

Arxeologik tadqiqotlar Kesh-Shaxrisabz tarixiy-geografik xududlarida ilk temir davriga oid yodgorliklarda arxeologik jixatidan tekshirish ishlari olib borilgan. Masalan, mazkur xududda Sangirtepa istehkomli qal'a vazifasini bajargan[8]. V.M.Massonning Murg'ob daryosi yuqori qismida Yazdyana yodgorligida 8 metr xom g'ishtli poydevor ustiga saroy-inshooti qurilgan, u madaniy-xo'jalik markazi bosh shaxri xukmdori yashagan degan xulosaga kelgan[9]. Shimoliy Baqtriya xududida xam ushbu poydevorli balandligi-4 Kuchuktepa yodgorligi mudofaa devor maydoni 0,5 ga kichik xajmli qo'rg'on sifatida bunyod qilingan[10]. Mudofaa devorida burj va shinaklar to'g'risida ma'lumotlar kuzatilmaydi. Shunday kichik xajmli qishloq maqomiga ega bo'lgan, to'rt tomoni aylana shaklda burjlarga ega bo'lgan mudofaa devor o'rab olgan Tillatepa arxeologik jixatidan o'rganilgan[11].

O.N.Lushkenko ma'lumotiga ko'ra Sangirtepa qishloq tipida bunyod qilinib, tomonlarini mudofaa devor o'rab olgan, mil.avv.VII asrga oid bo'lgan[12]. Mil.avv. VII-IV asrlarda shimoliy va janubiy Baqtriya istehkomli qishloq tipida yodgorliklar qurilishi keng tus olgan. Yuqorida qayd qilingan Kuchuktepa, Tillatepadan tashqari Surxondaryo xududida Qizilcha 1,6, Shimoliy Afg'onistonda Qutlug'tepa, aylana shaklda (aylanasi 50 m) yo'lak bilan ajralgan uch qator paxsa devor bilan o'rab olingan[13], Oltin-1 to'rtburchak shaklda (36x36) m mudofaa devor (paxsa) o'rab olgan[14].

1970-yildan boshlab, A.S.Sagdullaev, Z.Xakimovlar Sho'rchi tumanida Mirshodi qishlog'i xududida Qiziltepada qazishma ishlarini olib borib quyidagi natijalariga erishganlar. Tadqiqotchilar qayd qilishicha Qiziltepa mudofaa devori asosi paxsa bo'lib, uning balandligi 1,5-2,0 m bo'lgan[15]. Mudofaa devori yarim aylana burjlar ularning oraliq maydoni-5-6 m.

Natijalar. O'zbekistonning tarixiy-geografik hududlaridagi ilk temir davri mudofaa inshootlarida amalga oshirilgan arxeologik izlanishlar ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilk temir davri aholisi ijtimoiy hayotida mudofaa bilimlari shakllanish va rivojlanish jarayonlari ochib berildi, bundan tashqari mudofaa inshootlarining tuzilishi, ahamiyati va tipologik xususiyatlari asoslab berildi.

Takliflar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi fikrlar taklif qilinadi:

- O'zbekistonning tarixiy-geografik hududlarida ilk temir davri mudofaa inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini chuqur ilmiy tahlil qilish asosida yakuniy xulosaga kelish;

- ajdodlarimiz kundalik faoliyatida mudofaa bilimlarining shakllanish va rivojlanish sharoitlarini tahlil qilish;

- ilk temir davri mudofaa inshootlarining tipologik xususiyatlarini chuqur yoritib berish;
- maqolda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'zbekiston tarixining ilk temir davri aholisi ijtimoiy hayotida mudofaa bilimlarini yoritishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish

Xulosa. Yuqorida bildirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosaga kelindi:

XX asr 30 yillari o'rtalaridan boshlab vatanimiz viloyatlarida turli atamaga ega bo'lgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlar ajdodlarimiz turli davrlarda hayot kechirgan turar-joylar mudofaa inshootlarida keng qamrovli ravishda arxeologik izlanishlar olib borila boshlandi. Ekspeditsiyalar natijalariga ko'ra Xorazm voxasi janubiy chegarasida Ko'zaliqir manzilgohi, Samarqand yaqinida joylashgan Tali-Barzu yodgorligi, Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqot olib borgan Chirikrabot manzilgohi, Babishmulla manzilgohi, Chust manzilgohi, Dalvarzintepa yodgorligi, Yerqo'rg'on va boshqa yodgorliklar ilk temir davrida mudofaa inshootlarga mansub degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма //ВДИ-М.: 1941-№ 2-С. 178.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм-М.:МГУ, 1948-С. 81. Рис 20.
3. Григорьев Г.В. Поселения древнего Согда //КСИИМК-М.:Наука, Вып.IV-С. 150-153. 1940.
4. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР 1949 г /Известия АН СССР. Серия, истории и философии, М.:Наука, 1950. № 6-С. 521-522. Ўша муаллиф. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция 1955-1956 гг //СА-М.:Наука, 1958 № 1-С 109-110.
5. Заднепровский Ю.А. Матбобоев Б.Х. Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950-1982гг //ИМКУ,Ташкент,:Фан, 1984 Вып 19-С. 46-71.
6. Матбабаев Б.Х. Некоторые итоги сравнительного изучения расписной керамики Чустской культуры //ИМКУ, 1999. Вып. 30-С.53-54. Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия)-Ташкент.: Ўзбекистон, 2023-Б.88-89.
7. Туребеков М. Оборонительные сооружения древних поселения и городов Согда Каракалпакстан-Нукус 1990-С.29.
8. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар-Тошкент.:Шарқ, 1998-Б.46-49.
9. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы //МИА-М.:Наука 1959. № 73-С. 73-76.
10. Аскарлов А, Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа-Ташкент,:Фан" 1979-С. 18-23.
11. Сарияниди В.И. Храм и некрополь Тиллятепе-М.:Наука, 1989-С-6-9
12. Лушпенко О.Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи //Древняя и средневековая археология юга Средней Азии-Ташкент.:Фан. 1998-Б.46-49.
13. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии-Ташкент, Фан, 1987-С.56-58.
14. Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана-М.:Наука, 1977-С 117.
15. Хакимов З.Р, Сагдуллаев А. О работе Миршадского отряда //АО 1978-М.: Наука 1979-С 565.